TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	1524
Allaberganov Zakir G'ayibovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI	1530
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTON O'RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR.....	1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSİYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA'SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI.....	1541
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA "YASHIL" MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich	



YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM.....	1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS	1566
Majidova Sanobar Daminovna	
UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE.....	1573
Li Yang	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	1581
Tuyinov Botir Ismatovich	
TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES.....	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
GULCHILIK TARMOG'IDA OILAVIY KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA	1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O'ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV	1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
IJRO HUIJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1602
Matmuratova Nasiba Azatovna	
IJRO HUIJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI	1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
AHOLINI IJTIMOYIY TA'MINOT TIZIMINING TAMOIYILLARI VA UNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI	1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE	1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI	1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KREATIV SANOAT VA TURIZM INTEGRATSIYASI: ZAMONAVIY SHAHARLAR IQTISODIY MODELIDAGI YANGI YONDASHUV	1628
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	1632
M.O.Yuldoshova	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT SEKTORIGA "YASHIL" INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	1636
Ibragimov Xaxid Taxirovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ВИРТУАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1644
Хатамов Азизжон Абдумажитович, Абдураупов Рустам Рамзович	
AVTOMOBIL SANOATIDA BREND STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	1650
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjayevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV TAHLILINING ZARURATI.....	1657
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	1661
Nosirov Jasur Tursunpulotovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL ENERGIYA SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI (2015-2025-YILLAR TAHLILI)	1667
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
SUG'URTA XIZMATLARI HAJMINI EKONOMETRIK BAHOLASH	1671
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TURIZMNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA STATISTIK MONITORING TIZIMI	1675
Q.A. Musaxanov	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1679
Ulashev Xubbim	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI	1684
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	1695
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV VA CHAKANA BANK XIZMATLARINI ASOSIY MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI	1707
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BILAN BOG'LIQ MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	1712
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	1720
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
СПЕЦИФИКА И АНАЛИЗ ПРЕДПОЧТЕНИЙ РОССИЙСКИХ ТУРИСТОВ ПРИ ПОСЕЩЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	1725
Усманова Дилъфруз Каршиевна	
O'ZBEKISTONDA ISLUM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA HUQUQIY-INSTITUTIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1733
Sharapov Azamat Masharipovich	
XORIJ TAJRIBASIDA BANKLARARO RAQOBAT VA BANK TIZIMI BARQARORLIGI O'RTASIDAGI NAZARIY MUNOSABATLAR	1739
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
LOGISTIKA TIZIMLARI UCHUN REAL VAQT MONITORING TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	1745
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1749
Xusanova Malohat Mingnorovna	
"QUYUV MEXANIKA ZAVODI" AJDA ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1755
Suyunova Zuxra Bahodir qizi	
MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH USULLARI VA VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH	1761
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINI ASOSIDA G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASI VA UNING BO'LINMALARIGA DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	1766
Guzal Navruzova	
MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGINING MAKROIQTISODIY OMILLARI: INFLYATSIYA, FOIZ STAVKASI VA TO'LOV BALANSI NAZARIY TAHLILI	1773
G'afurov Olimjon G'olib o'g'li	
AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA AUDIT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA RISKKA ASOSLANGAN YONDASHUV	1778
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	



MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH USULLARI VA VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH	1782
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR (MHXS) ASOSIDA YURITISH IMKONIYATLARI	1787
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Xalmatova Sevara Rahimovna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINI ASOSIDA G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASI VA UNING BO'LINMALARIGA DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1794
Guzal Navruzova	
AKT SOHASIDAGI KORXONALARDA MAJBURIYATLAR BO'YICHA HISOB SIYOSATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	1800
Amirov Askar Aktamovich	
MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR HISOBİ VA AUDITI	1804
Zaripova Sayohat Zafarovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1809
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
KOMPOZIT INDEKSLARNI HISOBLASHDA ME'YORLASHTIRISH USULLARIDAN FOYDALANISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	1816
Axmedova Rayxona Jasurbek qizi	
TURISTIK RESURLARNING TASNIFI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	1821
Q.A. Musaxanov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	1824
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIY TAJRIBASI	1829
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1836
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
MINTAQAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV PLATFORMASI KONSEPTUAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	1840
Toxirova Nigora Zokirjon qizi	
IQTISODIYOT ILMIDA GIPOTEZA, GIPOTETIKDEDUKTIV VA AKSIOMATIK METODLAR: mazmuni, ahamiyati va qo'llash xususiyatlari.....	1848
Dusmuratov Radjabbay Davlatbayevich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1853
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TAHLILIY METODLAR VA BAHOLASH TIZIMLARI.....	1860
Raxmanov Zafarjon Yashinovich	



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TAHLILIIY METODLAR VA BAHOLASH TIZIMLARI

Raxmanov Zafarjon Yashinovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, PhD, dotsent

E-mail: zry2010@rambler.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash sharoitida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va baholashning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Unda zamonaviy iqtisodiy o'zgarishlar, makroprudensial nazorat talablarining kuchayishi, raqamli moliyaviy texnologiyalar, fintech kompaniyalari raqobati hamda mijozlar talabining o'zgarishi bank strategiyalariga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, PESTLE tahlili, Porterning besh kuch modeli, SWOT, GAP tahlili, moliyaviy nisbatlar va stress-test kabi strategik tahlil usullarining tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi yoritilgan. Tadqiqot natijasida banklarning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirishda tashqi va ichki muhit omillari, raqobat holati, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya va risklarni boshqarish masalalarini kompleks hisobga olish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank strategiyasi, raqamli transformatsiya, strategik menejment, fintech, PESTLE tahlili, SWOT tahlili, GAP tahlili, Porterning besh kuch modeli, moliyaviy nisbatlar, stress-test, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of developing and evaluating strategies for the development of commercial banks in the context of transformation. It analyzes modern economic changes, increased macroprudential control requirements, digital financial technologies, competition from fintech companies, and changes in customer demand as important factors influencing bank strategies. It also covers the application of strategic analysis methods such as PESTLE analysis, Porter's five forces model, SWOT, GAP analysis, financial ratios, and stress testing in the activities of commercial banks. The study substantiates the need to comprehensively take into account external and internal environmental factors, competitive situation, financial stability, digital transformation, and risk management issues when forming a long-term strategy of banks.

Key words: commercial banks, banking strategy, digital transformation, strategic management, fintech, PESTLE analysis, SWOT analysis, GAP analysis, Porter's five forces model, financial ratios, stress test, competitiveness, financial stability.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы разработки и оценки стратегий развития коммерческих банков в условиях трансформации. В статье проанализированы современные экономические изменения, усиление требований макроprudенциального надзора, цифровые финансовые технологии, конкуренция со стороны fintech-компаний, а также изменение потребительского спроса как важные факторы, влияющие на банковские стратегии. Также освещено применение в деятельности коммерческих банков таких методов стратегического анализа, как PESTLE-анализ, модель пяти сил Портера, SWOT-анализ, GAP-анализ, финансовые коэффициенты и стресс-тестирование. По результатам исследования обоснована необходимость комплексного учета факторов внешней и внутренней среды, состояния конкуренции, финансовой устойчивости, цифровой трансформации и вопросов управления рисками при формировании долгосрочной стратегии банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковская стратегия, цифровая трансформация, стратегический менеджмент, fintech, PESTLE-анализ, SWOT-анализ, GAP-анализ, модель пяти сил Портера, финансовые коэффициенты, стресс-тестирование, конкурентоспособность, финансовая устойчивость.



KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar, ya'ni ko'plab ilmiy va amaliy manbalarda ta'kidlanganidek, transformatsiya jarayonlari tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Bizningcha, bu holat bir qator uzoq muddatli tendensiyalar bilan bog'liq. Avvalo, makroprudensial nazorat talablarining kuchaytirilishi, shuningdek, inflyatsiyaning prognoz darajalariga erishish, narxlar o'sish sur'atini pasaytirish va aholi jamg'armalarini rag'batlantirish maqsadida nisbatan qat'iy pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi tijorat banklarining makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Strategiya tushunchasining iqtisodiyot faniga kirib kelishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. "Strategiya" atamasi yunon tilidagi "stratos" — "qo'shin" va "ago" — "boshqarish" so'zlaridan yasalgan bo'lib, dastlab harbiy san'atga tegishli bo'lgan. Zamonaviy iqtisodiyot fanida ushbu tushuncha bugungi kunda kengayib, har qanday tashkilotning raqobatli pozitsiyasini mustahkamlash, moliyaviy resurslarini maqbul taqsimlash va uzoq muddatli maqsadlarga erishishning usullari va mexanizmlarini ifoda etadi.

Banklar faoliyatida strategik menejment va uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishning metodologik asoslarini shakllantirishda dunyo miqyosidagi bir qator olimlar va maktablar muhim hissa qo'shgan. Ularning konsepsiyalarini banklar faoliyatiga tatbiq etish masalasi esa bugungi kunda ilmiy sohaning markaziy mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot ishi doirasida strategiya ishlab chiqish va uni joriy etish borasida eng muhim quyidagi konsepsiyalar va ularning bank strategiyasiga tatbiq etish jihatlari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E'tirof etish lozimki, tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan e'tiborga molik bo'lgan izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash muammolari Ernst & Young Global Limited ekspertlari A. Gilder, M. Cox va J. Sankey tomonidan tayyorlangan "How will banks transform to build the next generation of businesses?" nomli tadqiqotida batafsil ko'rib chiqilgan [1].

S. Hussainning "Bank transformation practices around the operation, maintenance monitoring, and chaos engineering" nomli maqolasida tijorat banklari faoliyatida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning turlari keltirib o'tilgan. Muallifning fikricha, transformatsion jarayonlar quyidagi yo'nalishlarda yuz bermoqda:

Jarayonlarni avtomatlashtirish: har kunlik operatsiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish operatsiyalarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va aniqlik darajasini oshirish imkonini beradi. Avtomatlashtirish jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA), sun'iy intellekt (AI) va boshqa texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Bank sektoridagi transformatsion jarayonlar nuqtayi nazaridan Deloitte Touche Tohmatsu Limited mutaxassislari K. Edelman, H. Bachman, A. Kumar Saha va A. Iyer tomonidan tayyorlangan "2023 banking and capital markets outlook"da tijorat banklari g'oyalar va raqamli instrumentlar asosida xizmat ko'rsatishning yangi modellarini ishlab chiqishlari zarurligiga e'tibor qaratilgan. Qayd etilishicha, "...inflyatsiya, yuqori foiz stavkalari, ta'minot zanjiridagi uzilishlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan retsessiya tijorat banklari uchun murakkab iqtisodiy muhitni shakllantirmoqda. Markaziy banklar tomonidan hisob stavklarining ko'tarilishi tijorat banklarining sof foiz daromadlarining oshishini ta'minlab bermadi. Tijorat banklari yuqori darajada foizlar olishga intilayotgan mijozlarni ushlab qolish uchun depozit mahsulotlari bo'yicha stavkalarni oshirishga majbur bo'lishmoqda. Sodiqlik darajasi katta bo'lgan mijozlar bazasiga ega bo'lishlariga qaramasdan, tijorat banklari korporativ va chakana mijozlar sonini ko'paytirish borasida qat'iy raqobatga duch kelishlari mumkin. Ular katta hajmli ma'lumotlarni qayta ishlash asosida mijozlar uchun individual raqamli yechimlar va individual tavsiyanomalar ishlab chiqishlari lozim bo'ladi. Bu esa banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi modellariga o'tishni talab qiladi" [2].

M. A. Galperning "Global nobarqaror muhit sharoitida bankning transformatsiyalanishi" nomli ilmiy tadqiqot ishida e'tirof etilishicha: "...global nobarqaror muhit sharoitida bank faoliyatining transformatsiyalanishi muqarrarligini tasdiqlaymiz va bu ko'p kanalli xizmat ko'rsatish prinsipidan bir kanalli xizmat ko'rsatishga o'tish orqali iste'molchilarning raqamli turmush tarziga kirib borish, mijozlarning moliya bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish va bank xizmatlari ko'lamining kengayib borishida o'z ifodasini topadi" [3]. O'z mulohazalarini davom ettirib, global nobarqaror muhit sharoitida bank faoliyati transformatsiyasi birinchi navbatda mijozlarga yo'naltirilgan biznes modelning amaliyotga joriy etilishi bilan bog'liq degan xulosaga kelgan. "Bunday ko'rinishdagi boshqaruv



qarorining qabul qilinishi raqobat kurashi darajasi, mijozlar ehtiyojining o'zgarib borishi va global muhit omillari ta'siri ostida yuz beradi. Garchi tijorat banklari mijozlarni jalb etishda asosiy e'tiborni xizmatlar sifatini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlarni taklif etishga qaratishgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda mijozlarning ehtiyojini o'rganish va shu asosda ularga zarur bo'lgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish bank faoliyatining bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Mijozlarning talablarini tahlil etish rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda birinchi o'ringa chiqadi. Tashqi muhitdagi o'zgarishlar, trend va tendensiyalar iste'molchilarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Iste'molchilarni bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish jarayonidagi amaliy ishtirokini ta'minlash bankning strategik rivojlanishi va innovatsion biznes modelining oliy darajadagi natijasi hisoblanadi" [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayonida qo'llaniladigan tahliliy metodlar va baholash tizimlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda strategik tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, bank strategiyasiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni baholashda PESTLE tahlili, raqobat muhitini aniqlashda Porterning besh kuch modeli, ichki va tashqi imkoniyatlarni baholashda SWOT tahlili, mavjud holat bilan strategik maqsadlar o'rtasidagi tafovutni aniqlashda GAP tahlili qo'llanildi. Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va strategik rivojlanish imkoniyatlarini baholashda moliyaviy nisbatlar tahlili hamda stress-test metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va bank amaliyotiga oid tahliliy ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchidan, biznes modellarning o'zgartirilishi va unga mos holda ichki tizimning takomillashtirilishi tashqi muhitda yuzaga kelayotgan va bank faoliyatiga bevosita aloqador bo'lmagan tizimli risklardan himoyalaniş darajasini oshirish imkonini beradimi? Ikkinchidan, moliyaviy texnologiyalarning to'xtovsiz yangilanib borishi va muqobil to'lov vositalarining amaliyotga joriy etilishi sharoitida bank faoliyatini tubdan o'zgartirish va uni yuqori texnologik kompaniyaga transformatsiyalanishiga olib kelishi mumkinligi diqqat-e'tibor markazida bo'lishi kerak emasmi? Uchinchidan, nobank tashkilotlar tomonidan kredit, depozit va to'lovlarga oid an'anaviy bank xizmatlarining turli shakl va ko'rinishda taklif etilishi bank faoliyati sifatida qonunan belgilangan operatsiyalar bozoridagi raqobatni kuchaytirishi va qat'iy prudensial normalar bilan tartibga solinuvchi banklarning raqobat pozitsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinmi? Fikrimizcha, ushbu savollarga olingan javoblar bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasida jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayonlarining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lgan raqamlashtirish muammolari ko'plab olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar obyekti ga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mas'ul xodimi U. Mahmudovning "Bank tizimida raqamli moliyaviy xizmatlar: taraqqiyot va oldinda turgan vazifalar yechimi" nomli maqolasida: "...iqtisodiyotning raqamlashtirilishi nafaqat banklar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, balki ularni raqobatni kuchaytirish, mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, arzon va sifatli moliyaviy va to'lov xizmatlarini ko'rsatish orqali mijozlarni jalb qilishning yangi usullarini izlashga undaydi. To'lov va bank xizmatlari sohasidagi bank va to'lov xizmatlari bozorida raqobat sharoitlariga moslashish zarurati aholi moliyaviy madaniyatining o'sishi sharoitida banklarga nisbatan muayyan talablarni qo'yadi. Bunday holda yuqori sifatli raqamli banking xizmatlarini taqdim etadigan banklar, shubhasiz, ustunliklarga ega bo'lishi tayin. Raqobat bozorida faqat o'z faoliyatini bank biznesining yangi talablariga va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga muvofiq o'zgartirgan banklar barqaror ishlaydi. Ko'rilgan chora-tadbirlar va yaqin kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar ham yanada rivojlanishga, muntazam nazoratning o'rnatilishiga va bank tizimidagi kamchiliklarning bartaraf etilishiga xizmat qiladi" [4], degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, tahlillar asosida ma'lum bo'ldiki, strategiya ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur tahliliy metodlar va vositalar tizimi ko'rib chiqiladi. Metodlar tashqi muhitni tahlil qilish va ichki muhitni baholash, raqobatni baholash va moliyaviy prognozlash bloklariga bo'linadi. Tijorat banklarida uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan metodlarni ko'rib chiqamiz.

PESTLE tahlili banklarning strategiyasiga ta'sir etuvchi tashqi muhitning olti omilini — siyosiy (Political), iqtisodiy (Economic), ijtimoiy (Social), texnologik (Technological), huquqiy (Legal) va ekologik (Environmental) tizimli baholash usuli bo'lib, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi. O'zbekiston bank tizimi uchun ushbu tahlil 2020–2024-yillar kontekstida quyidagicha namoyon bo'ladi.



1-jadval

O'zbekiston bank tizimi uchun PESTLE tahlili

Omil	Asosiy ko'rsatkichlar	Bank strategiyasiga ta'siri	Darajasi
Siyosiy (P)	"Yangi O'zbekiston" islohotlari; Banklarda IPO rejasi; xususiylashtirish dasturi	Davlat banklarida strategik maqsadlar o'zgaradi; IPO tayyorligi KPI tizimini	Yuqori
Iqtisodiy (Ye)	YalM va uning o'sishi, inflyatsiya, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi	Kredit summasi oshishi; stavka oshishi moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi	Yuqori
Ijtimoiy (S)	Moliyaviy savodxonlik oshishi; internet foydalanish yaqin	Raqamli bankchilikka talab oshadi; chakana kredit va omonat mahsulotlari kengayadi	O'rta-yuqori
Texnologik (T)	Fintech rivojlanishi: Click, Payme, UZUM Pay; Open Banking	Banklar raqamli transformatsiya; xarajatlar tuzilmasi o'zgarishi; raqobat kuchayishi	Yuqori
Huquqiy (L)	O'zbekiston qonunchiligi, Xalqaro Bazel III me'yorlari	Strategiya me'yoriy bazaga moslashishi shart; kapital talablari oshadi	Yuqori
Ekologik (Ye)	"Yashil" moliyalashtirish standartlari; ESG hisobotlari iqlim risklarini baholash	"yashil" kredit mahsulotlari	O'rta

O'zbekiston bank tizimi uchun PESTLE tahlilidan foydalanish iqtisodiy va texnologik omillarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. PESTLE tahlilida keltirilgan 6 ta omil eng asosiysi bo'lib, bevosita banklar uzoq muddatli strategiyani shakllantirishda inobatga olishi lozim bo'lgan omillardan sanaladi. Tijorat banklari faoliyatiga YalMning oshishi, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi va savodxonligi, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining darajasi, qonunchilik va texnologik omil jihatidan fintechning rivojlanishi zamonaviy banklarda strategiya ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Porterning besh kuch modeli. Porterning (1980) raqobat tuzilishini tahlil qilishning besh kuch modeli tijorat banklariga o'ziga xos tarzda tatbiq etiladi. O'zbekiston bank sektori uchun ushbu kuchlar 2024-yil ma'lumotlari asosida baholandi.

2-jadval

O'zbekiston bank tizimi uchun Porterning besh kuch modeli bahosi

Kuch	Asosiy ko'rsatkich	Tahlil	Ta'sir darajasi
1. Raqiblar raqobati	38 ta tijorat banki; Hamkorbank, Ipak Yo'li, Aloqabank - aktivlar bo'yicha liderlar	3 bank bozorning 22 % ni tashkil etadi; JI 40–80 % diapazoni - raqobat keskin	Yuqori
2. Yangi kiruvchilar	Raqamli banklar (neobanklar); xorijiy banklar (Koreya, Xitoy kapitali)	Kirish to'siqlari - litsenziya, kapital talablari; ammo fintech kirishi oson	O'rta
3. O'rinbosarlar xavfi	Click, Payme, UZUM Pay - to'lovlar; MFO - mikro kreditlar; kooperativlar	To'lov xizmatlari bozorida banklarning ulushi qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda; ammo omonat/kredit o'rni saqlangan	O'rta-yuqori
4. Mijozlar kuchi	Yirik korporativ mijozlar ko'p bank bilan ishlaydi; chakana mijozlar mobilligi oshdi	Korporativ segmentda mijoz narxga sezgir; depozit bozorida raqobat keskinlashdi	Yuqori
5. Ta'minotchilar kuchi	VISA, Mastercard, Uzcard, Humo - to'lov tizimi; IT ta'minotchilar	Uzcard va Humo monopoliyasi o'rta ta'sir ko'rsatadi; IT ta'minotchilar raqobatda	O'rta

Tijorat banklari strategiyasini baholashning navbatdagi usuli ssenariy tahlili metodologiyasi hisoblanadi. Ssenariy tahlili (scenario planning) — noaniqlik sharoitida strategik qarorlar qabul qilishning metodologik vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Shell kompaniyasi 1970-yillarda neft narxi inqirozini oldindan rejalashtirishda birinchi bor ishlatgan ushbu usul keyinchalik bank tizimida keng tarqaldi [5].



Tijorat banklari strategiyasini baholashning ssenariy tahlilida bazaviy ssenariy, optimistik ssenariy va pessimistik ssenariy tuzilmasidan foydalaniladi. Ushbu yondashuv metodologik jihatdan to'g'ri, ammo har bir ssenariy uchun aniq taktik javob choralari belgilanmaganligi zaiflik sifatida qaralishi mumkin.

Tijorat banklarida strategiya ishlab chiqishda keng qo'llaniladigan metodologik vosita SWOT tahlili metodi bo'lib, SWOT tahlili (Strengths — Weaknesses — Opportunities — Threats) bankning ichki salohiyati va tashqi muhitini tizimli baholashga mo'ljallangan strategik tahlil vositasidir. Metodologiya 1960-yillarda Stenford tadqiqot institutida Albert Humphrey rahbarligida ishlab chiqilgan [6]. Banklarda strategiya ishlab chiqish jarayonining birinchi bosqichi — strategik tahlilda SWOT metodologiyasi tashqi muhit (PESTLE, Portnering 5 kuchi) va ichki resurslar (VRIN) tahlili natijalarini sintezlaydi hamda strategik qarorlar uchun muttasil asos yaratadi.

SWOT tahlilining to'rtta kvadranti bank uchun quyidagi metodologik mazmunni ifodalaydi:

- S — kuchli tomonlar — bankning ichki raqobatli ustunliklari: kapital bazasi mustahkamligi, malakali boshqaruv, brend nufuzi, IT infratuzilma.
- W — zaif tomonlar — ichki kamchiliklar: operatsion xarajatlarning yuqoriligi, NPL nisbati, raqamli transformatsiyaning sust kechishi.
- O — imkoniyatlar — tashqi muhitdagi ijobiy o'zgarishlar: raqamli banking bozorining o'sishi, moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi, Open Banking standartlari.
- T — tahdidlar — tashqi xatarlar: fintech raqobati, kiberxavfsizlik, monetar siyosat o'zgarishlari.

3-jadval

Tijorat banklari faoliyatida qo'llaniladigan SWOT matritsasi namunasi

S - Kuchli tomonlar (Strengths)	W - Zaif tomonlar (Weaknesses)
• kuchli kapital bazasi va likvidlilik • keng mijozlar tarmog'i va brend • malakali boshqaruv jamoasi • rivojlangan IT infratuzilma	• operatsion xarajatlarning yuqoriligi • NPL (muammoli kreditlar) nisbati • raqamli transformatsiyada kechikish • KPI tizimining tizimli emasligi
O - Imkoniyatlar (Opportunities)	T - Tahdidlar (Threats)
• raqamli banking xizmatlarini kengaytirish • moliyaviy inklyuzivlikning oshishi • yangi mijoz segmentlari (MSB, agro) • Open Banking va fintech hamkorlik	• fintech kompaniyalari raqobati • kiberxavfsizlik xatarlari • monetar siyosat o'zgarishlariga sezgirlik • regulativ talablarning kuchayishi

SWOT tahlilining banklar uchun ahamiyati uchta asosiy jihatda namoyon bo'ladi. Birinchisi — strategik pozitsiyani aniqlash: SWOT matritsasi S+O (kuchli tomon va imkoniyat uyg'unligi — “hujum strategiyasi”), S+T (kuchli tomon orqali tahdidga javob, ya'ni “mustahkamlash strategiyasi”), W+O (zaiflikni imkoniyat orqali bartaraf etish orqali “rivojlantirish strategiyasi”) va W+T (zaif tomon va tahdid, ya'ni “mudofaa strategiyasi”) kombinatsiyalarini shakllantiradi [7].

SWOT bankning Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va bo'lim rahbarlari o'rtasida strategik muhokamani oddiy va tushunarli tilda yuritishni ta'minlaydi. Shuningdek, Deming sikli doirasida har yilgi SWOT yangilanishi bank strategiyasini tashqi muhit o'zgarishlariga moslashtirish mexanizmini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, SWOT tahliliga nisbatan nazariy adabiyotda asosli tanqidiy mulohazalar bildirilgan. Hill va Westbrook (1997)ning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, SWOT tahlili ko'pincha uzun ro'yxatlar to'plashga aylanib, real strategik qaror qabul qilishga xizmat qilmaydi [8]. Lekin shunga qaramasdan, banklarda strategiya ishlab chiqishda SWOT tahlilining uchta metodologik cheklovini ajratib ko'rsatish mumkin:

- subyektivlik — SWOT tahlili elementlarini “kuchli” yoki “zaif” deb belgilash ko'pincha rahbarlarning shaxsiy bahosiga tayanadi, obyektiv o'lchov mezonlari mavjud emas;
- statiklik — bunda SWOT tahlili ma'lum bir vaqt kesimidagi suratni ko'rsatadi, bank bozorining tez o'zgaruvchan tabiatini dinamik tarzda aks ettira olmaydi;
- prioritetni belgilamaslik — barcha SWOT elementlari bir xil ahamiyatda aks etadi, qaysi zaif tomon yoki tahdid birinchi navbatda hal qilinishini aniqlash qiyin. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun SWOTni PESTLE (tashqi omillar tuzilmasini kuchaytirish), TOWS matritsasi (strategik alternativallarni ishlab chiqish) va miqdoriy baholash (har elementga vazn beriladi) usullari bilan birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

Strategiyani baholashning raqobatli holat va GAP tahlili metodlari.

Raqobatli holat tahlili bankning bozordagi nisbiy o'rnini raqiblarga nisbatan obyektiv baholashga imkon beradigan metodologik vositadir. Porter (1980)ning raqobatli ustunlik nazariyasi ushbu sohaning nazariy asosini tashkil etadi. Banklarda “xarajatlar bo'yicha liderlik”, “differentsiatsiya” yoki “fokus” strategiyasidan birini tanlash va ushbu pozitsiyani raqiblarga nisbatan aniq moliyaviy ko'rsatkichlar orqali tasdiqlash zarur [9]. O'zbekiston



tijorat banklari uchun pozitsiyalashtirish tahlilini to'rtta asosiy yo'nalish — aktivlar rentabelligi (ROA), operatsion samaradorlik (CIR), aktivlar sifati (NPL) va likvidlilik ko'rsatkichi (LCR) bo'yicha amalga oshirish mumkin.

4-jadval

Tijorat banklarining raqobatli pozitsiya matritsasi,
(foiz hisobida, yil yakuniga)

Bank	ROA o'rtacha,	CIR o'rtacha,	NPL ulushi (2025)	Raqobatli pozitsiya
Ipak Yo'li banki	3,07	44,33	1,12	«Moliyaviy lider»
Aloqabank	1,32	52,45	2,54	«Potensial»
Mikrokreditbank	-1,05	60,63	4,41	«Tiklash»
Tizim o'rtachasi	2,00	50-	3.0	-

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Ipak Yo'li banki barcha to'rtta o'lchov bo'yicha tizim lideri hisoblanadi. U "moliyaviy lider" pozitsiyasida. Aloqabank EPOS tarmog'idagi 22,9 foizlik bozor ulushi bilan strategik potensialga ega, ammo moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta holatda. Mikrokreditbankning 2024-yildagi ko'rgan zarari uni "tiklash" pozitsiyasiga tushirgan.

Raqobatli holat tahlilining asosiy ahamiyati bank rahbariyati va Kuzatuv kengashiga "Biz raqiblarga nisbatan qayerdamiz?" savoliga aniq javob berishni talab etadi. Uning kamchiligi esa tahlil o'tgan davr ma'lumotlariga tayanishi va statik tasvir berishidir. Bank xizmatlari bozoridagi raqobatchi raqiblarning strategik niyati va istiqboldagi qadamlarini aniqlay olmaydi [10].

GAP tahlili (Gap Analysis) tijorat banklarining mavjud holati bilan strategik maqsadlar o'rtasidagi "bo'shliq"ni miqdoriy o'lchash va uni bartaraf etish yo'llarini aniqlash metodologiyasidir. Hussey (1998)ning tadqiqotlarida aniqlanishicha, GAP tahlili "Biz hozir qayerdamiz?" va "Qayerda bo'lishimiz kerak?" savollari orasidagi masofani aniqlab, strategik tuzatish uchun aniq yo'nalish beradi [11]. Banklarda GAP tahlili KPI ko'rsatkichlari (ROA, CIR, NPL, LCR, raqamli ulush) bo'yicha "real holat vs strategik maqsad" formatida shakllantiriladi.

5-jadval

AT «Aloqabank» faoliyatida GAP tahlili,
(foiz hisobida, yil yakuniga)

KPI ko'rsatkich	Real holat (2025)	Strategik maqsad (2026)	GAP (farq)	Bartaraf etish yo'li
ROA	0,92	$\geq 1,50$	- 0,58 f.p.	EPOS monetizatsiyasi + kredit sifati
CIR	61,32	$\leq 44,0$	- 17,3 f.p.	IT investitsiya + avtomatlashtirish
NPL	2,54	$\leq 2,00$	- 0,54 f.p.	Andarrayting standartini kuchaytirish
LCR	142	≥ 130	✓ Bajariladi	Barqaror ushlab
Raqamli ulush,	~65	≥ 75	- 10 f.p.	Raqamli yo'l xaritasi joriy etish

Aloqabankning strategik maqsadlaridan eng katta og'ishlari CIR (-17,3 foiz punkt) va ROA (-0,58 foiz punkt) bo'yicha ekanligini ko'rsatadi. LCR normativ maqsad doirasida ekanligi ijobiy. GAP tahlilining asosiy ahamiyati uchta jihatda namoyon bo'ladi: birinchisi — ustuvorlikni belgilash (eng katta GAP — birinchi navbat); ikkinchisi — resurs taqsimotini asoslash (CIR bo'yicha GAPni yopish uchun IT investitsiya zarur ekanligini miqdoriy ko'rsatish) va uchinchi — monitoring asosi (GAP dinamikasi chorakma-chorak kuzatiladi). GAP tahlilining kamchiligi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, maqsad qiymati noto'g'ri belgilansa, GAPni to'ldirish strategiyasi ham noto'g'ri yo'nalishga olib boradi. Shuningdek, u tashqi omillarni (raqiblar, bozor o'zgarishlari) inobatga olmaydi. Shu sababdan GAP tahlilini doimo PESTLE va raqobatli holat natijalari bilan birga qo'llash metodologik jihatdan shart hisoblanadi.

Banklar strategiyasini baholashning moliyaviy nisbatlar tahlili tijorat banklarida strategiyani baholashning miqdoriy asosini tashkil etadi. Berger va Humphrey (1997)ning klassik tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, bank samaradorligini baholashda moliyaviy nisbatlar "moliyaviy sog'lomlik termometri" vazifasini o'taydi: yakka ko'rsatkich emas, ularning majmui bankning haqiqiy strategik holatini ifodalaydi [12]. Nisbatlar uchta guruhga bo'linadi: rentabellik (ROA, ROE, NIM), samaradorlik (CIR) va prudensial barqarorlik (CAR, LCR, NPL). Basel



III doirasida prudensial nisbatlar davlat tomonidan majburiy belgilanadi, rentabellik va samaradorlik nisbatlari esa bankning strategik maqsadlari uchun etalon vazifasini o'taydi [13].

6-jadval

Tijorat banklari strategiyasini baholashning asosiy moliyaviy nisbatlar tizimi tavsifi

Ko'rsatkich	Formula	Iqtisodiy mazmuni	Xalqaro norma	O'MB norma	O'zbekiston banklari (2025)
ROA	Sof foyda / Jami aktivlar	Aktivlardan foydalanish samaradorligi	$\geq 1,5\%$	-	2,18% (tizim)
ROE	Sof foyda / Kapital	Kapital rentabelligi	$\geq 10\%$	-	12,38%
NIM	Sof foizli marja / Aktiv	Kredit operatsiyalaridan samara	3–5%	-	4,11%
CIR	Operatsion xarajat / Daromad	Operatsion samaradorlik	$\leq 50\%$	-	~55–65%
CAR	Regulyativ kapital / RVA	Kapital adekvatligi	$\geq 10,5\%$	$\geq 13\%$	18,3%
LCR	Likvidli aktiv / 30 kun oqim	Qisqa muddat likvidlilik	$\geq 100\%$	$\geq 100\%$	207,5%
NPL	Muammoli kredit / Kredit port.	Kredit portfeli sifati	$\leq 3\%$	$\leq 5\%$	3.0%

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bank tizimi 2025-yil yakunida prudensial normativlar (CAR 18,3%, LCR 207,5%, NPL 3,0%) bo'yicha me'yorda, ammo CIR ko'rsatkichi (~55–65%) xalqaro norma ($\leq 50\%$) dan yuqori bo'lib, strategik operatsion samaradorlik muammosi mavjudligini ko'rsatadi. Moliyaviy nisbatlar tahlilining ahamiyati uchta jihatda namoyon bo'ladi: raqiblarga nisbatan pozitsiyani obyektiv o'lchash (benchmarking); GAP tahlili uchun "real holat" ma'lumotini ta'minlash. Uning asosiy kamchiliklari sifatida nisbatlarning o'tgan davr natijasini tasdiqlashi (lagging indicators), kelajak xatarini oldindan ko'rsata olmasligi, manipulyatsiyaga moyilligi — ba'zi banklar nisbatlarni "tuzatish" uchun balans tuzilmasini o'zgartiradi (window dressing) — va alohida ko'rsatkich yalpi strategik holatni tasvirlamasligi, kompleks baholash zarurligi qayd etiladi.

Banklar faoliyatida strategiyani baholashning stress-test metodologiyasi noqulay yoki ekstremal makroiqtisodiy ssenariylar sharoitida bankning moliyaviy barqarorligini ssenariy asosida baholash usuli hisoblanadi. 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqirozdan so'ng Basel qo'mitasi "Principles for Sound Stress Testing Practices and Supervision" (2009) hujjatida stress-testni barcha tizimiy ahamiyatli banklar uchun majburiy deb belgiladi [14]. O'zbekiston bank amaliyotida ushbu metodologiya O'zbekiston Markaziy bankining prudensial nazorati doirasida tatbiq etilmoqda.

Stress-test uch xil ssenariy bo'yicha amalga oshiriladi. Bazaviy ssenariyda iqtisodiyot odatdagi tartibda rivojlanadi, bank ko'rsatkichlari mo'ljallangan doirada bo'ladi. Noxush ssenariyda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, Markaziy bank asosiy stavkasining oshishi, NPLning qo'shimcha oshishi ssenariy qilib olinadi. Jiddiy noxush ssenariy retsessiya, keskin devalvatsiya, tizimli NPL oshishi hamda kapital ko'rsatkichlarining minimal prudensial chegaraga yaqinlashishi sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash va ularning rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish bugungi iqtisodiy sharoitda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bank tizimiga ta'sir etayotgan makroiqtisodiy omillar, inflyatsiya, foiz stavkalari, raqamli texnologiyalar rivoji va nobank moliyaviy tashkilotlar raqobati tijorat banklaridan strategik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank strategiyasini ishlab chiqishda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki tashqi muhit, raqobat darajasi, mijozlar ehtiyoji, texnologik o'zgarishlar va regulyativ talablarga ham alohida e'tibor qaratish zarur. PESTLE, SWOT, GAP tahlili, Porterning besh kuch modeli va stress-test kabi usullar bankning mavjud holatini baholash, strategik maqsadlarini belgilash va ehtimoliy xatarlarga tayyor turish imkonini beradi.

Umuman olganda, tijorat banklarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Shu bois bank strategiyalari kompleks, moslashuvchan va aniq tahliliy asoslarga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gilder A., Cox M., Sankey J. How will banks transform to build the next generation of businesses? Ernst & Young Global Limited, 2020. URL: https://www.ey.com/en_gl/insights/banking-capital-markets/how-will-banks-transform-to-build-next-generation-of-businesses
2. Edelman K., Bachman H., Kumar Saha A., Iyer A. 2023 banking and capital markets outlook. Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2022. URL: https://www2.deloitte.com/content/dam/insights/articles/us175696_cfs_fsi-outlook-banking/DI_CFS_FSI-Outlook-Banking.pdf
3. Гальпер М. А. Трансформация банка в условиях глобальной неустойчивой среды: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. — Санкт-Петербург, 2020. — 19 с.
4. Mahmudov U. Bank tizimida raqamli moliyaviy xizmatlar: taraqqiyot va oldinda turgan vazifalar yechimi // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi — Экономический вестник Узбекистана. — 2021. — № 3. — В. 32–36. URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/6e2/CentroBank_Uz_EVU_3_2021.pdf
5. Schwartz P. The Art of the Long View: Planning for the Future in an Uncertain World. — New York: Currency Doubleday, 1991. — 258 p.
6. Humphrey A. SWOT Analysis for Management Consulting // SRI Alumni Newsletter. — Stanford Research Institute, 2005. — P. 7–8.
7. Weihrich H. The TOWS Matrix: A Tool for Situational Analysis // Long Range Planning. — 1982. — Vol. 15, № 2. — P. 54–66.
8. Hill T., Westbrook R. SWOT Analysis: It's Time for a Product Recall // Long Range Planning. — 1997. — Vol. 30, № 1. — P. 46–52.
9. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. — New York: Free Press, 1980. — 396 p.
10. Barney J. B., Hesterly W. S. Strategic Management and Competitive Advantage: Concepts and Cases. 6th ed. — Boston: Pearson, 2019. — 384 p.
11. Hussey D. Strategy and Planning: A Manager's Guide. — Chichester: John Wiley & Sons, 1998. — 320 p.
12. Berger A. N., Humphrey D. B. Efficiency of Financial Institutions: International Survey and Directions for Future Research // European Journal of Operational Research. — 1997. — Vol. 98, № 2. — P. 175–212.
13. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. — Basel: Bank for International Settlements, 2010; revised version, 2011. — 77 p.
14. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Stress Testing Practices and Supervision. — Basel: Bank for International Settlements, 2009. — 56 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>